

UDK 631.312:631.51

BALAND BO'YLI AYLANT (AILANTHUS ALTISSIMA) NING LABORATORIYA SHAROITIDA URUG'LARINING UNUVCHANLIGI ANIQLASH

**Eshankulov Bobomurod
Yulbasov Avazbek Muhtarovich**

O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti Laboratoriya mudiri, doktorant

Anatatsiya: *Maqolada manzarali baland bo'lyi Aylant urug'ining laboratoriya sharoitida unuvchanligi va shaxar ko'kalamzorlashtirishdagi o'rni, haqida ma'lumotlar ketirikgan.*

Kalit so'zlar: *Baland bo'lyi aylant, laboratoriya sharoiti, urug' unuvchanligi, ko'chat.*

Аннотация: *В статье приведены сведения о всхожести семян декоративного высокорослого рода Айлант в лабораторных условиях и о его роли в озеленении городов.*

Ключевые слова: *высокорослый айлант, лабораторные условия, всхожесть семян, саженец.*

Annotation: *The article provides information on the germination of seeds of the ornamental tall tree genus Ailanthus under laboratory conditions and its role in urban landscaping..*

Keywords: *tall Ailanthus, laboratory conditions, seed germination, seedling.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va xukumat qarorlarida aholi yashash hududlarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ko'kalamzorlashtirishning eng muhim vazifalaridan biri inson hayoti uchun sog'lom va to'laqonli estetik tabiiy muhit yaratishdir.

Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlarini saqlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmonining ijrosini ta'minlash, davlat o'rmon fondiga kirmaydigan yerlarda daraxtlar va butalardan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish maqsadida ko'plab ishlari amalga oshirilmoqda.

Shaharlarda aholini yashash sharoitlarini komfort darajasiga ko'tarish, dam olishini ta'minlash, shahardagi sanitar holatni yaxshilash, mikroiklimni yuzaga keltirish va sog'lomlashtiruvchi yashil hududlar maydonlarini kengaytirishda manzarali yashil daraxtzorlarni roli baland.

Ko'kalamzorlashtirish uchun manzarali daraxt-buta turlari assortimentini boyitish ham muhim ahamiyatga ega.

Ko'kalamzorlashtirish maqsadida tavsiya etilayotgan daraxt-buta turlari manzarali ko'rinishga ega bo'lishi bilan bir paytda shaharning tutunli-gazli va changli muhitiga

biologik chidamli bo'lishi va arxitekturaviy va sanitar-gigienik talabiarga ham javob berishi lozim.

O'zbekiston sharoitlarida shahar va qishloqlarni ko'kalamzorlashtirish uchun tavsiya etilgan asosiy daraxt-buta turlarini ko'paytirish usullari va ko'chatlarini yetishtirish bo'yicha ma'lumotlar keltiriladi. Ko'kalamzorlashtirishning eng muhim vazifalaridan biri inson hayoti uchun sog'lom va to'laqonli estetik tabiiy muhit yaratishdir.

O'zbekistonda manzarali ko'chatchilikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan ko'kalamzorlashtirish uchun shaharlar sharoitlariga biologik chidamli daraxt-buta turlarini assortimentini ko'paytirish hisoblanadi.

O'zbekistonda mavjud ko'kalamzorlashtirish sohasi uchun o'simlik turlari assortim cheklangan bo'lib, uni ko'paytirish va yaxshilash muhimdir. Ko'chatzorlarda nostandart, tasodifiy urug'lardan ko'paytirilgan nihollarni ko'kalamzorlashtirish maqsadlari uchun yetishtirish mavjud.

Shaharlarda ekishga mos bo'lgan, chidamli va uzoq umr ko'radigan qimmatli manzarali ko'rinishga ega bo'lgan daraxtlardan biri Baland bo'yli Aylant (*Ailanthus Altissima*) o'simligidir. Hozir kunda keng tarqalayotgan manzarali daraxt, Balan bo'yli Aylantn tez o'sishga ega, 20-25 yil ichida u 15 metrgacha o'sishi mumkin, qisqa umr ko'radi, kamdan-kam hollarda 50 yildan ortiq yashaydi.

Po'stlog'i kulrang, silliq, ko'plab yoriqlar bo'lgan. Ildizlari sayoz, ko'pincha tuproq yuzasida ko'rinadi, magistral yaqinida ular suvni saqlash uchun mo'ljallangan qalinlashuvlarni hosil qiladi, bu esa turlarning qurg'oqchilikka chidamliligiga yordam beradi. Asosiy ildiz yo'q, aksariyat ildizlar 40-45 sm o'lchamdagi tuproqning yuqori qatlamida joylashgan bo'lib, tasodifiy kurtaklar har qanday yuzaki ildizlardan paydo bo'lishi mumkin.

Baland bo'yli Aylant (*Ailanthus Altissima*) ifloslanishga eng bardoshli hisoblanadi, jumladan, oltingugurt dioksidini barglariga singdiradi. U sement changlari va ko'mir smolasi bilan ishlaydigan tutunlarga bardosh bera oladi, shuningdek, ozon ta'siriga nisbatan yaxshi qarshilik ko'rsatadi.

Bundan tashqari, simobning yuqori konsentratsiyasi o'simlik to'qimalarida to'plangan. Juda past fosfor darajasiga va yuqori sho'rlanish darajasiga bardosh bera oladi. Daraxtning qurg'oqchilikka chidamliligi uning ildiz tizimining samarali suv saqlashi tufayli kuchli.

U ko'pincha bir nechta daraxtlar omon qolishi mumkin bo'lgan joylarda topiladi. Ildizlar, shuningdek, yer osti kanalizatsiya va quvurlarga zarar etkazish uchun yetarlicha agressivdir. Magistral yo'llar bo'ylab, u ko'pincha raqobatni oldini olish uchun ishlab chiqaradigan toksinlar tufayli bir nechta boshqa daraxt turlari mavjud bo'lgan zich chakalakzorlarni hosil qiladi.

Umum e'tirof etilganlarga normaga ko'ra urug'lar unib chiqishi uslubi to'la pishib yetilgan urug'lar +23 – +28 °C haroratda urug'lar Petri idishlariga solingan filtr qog'oziga

10 ml suv qo'shiladi va termostatga solinadi. Tajriba uch nusxada o'tkazildi, har bir takrorlashda urug'lar soni 100 dona bo'lishi talb etiladi.

Urug'larning unish biologiyasi ko'p faktorli jarayonlarni o'z ichiga olib, ekzogen (harorat, namlik, yorug'lik, saqlash sharoiti) va endogen (urug' po'stining tuzilishi, unish davridagi fiziologik holati) omillar uning asosiy komponentlari hisoblanadi. Shu komponentlar asosida urug'larda ekzogen, endogen va uyg'unlashgan tinim holatlari farqlanadi. Urug'ning xususiyatlarini bilish undan amaliyotda samarali foydalanish imkoniyatini beradi. O'simlikda hosil bo'lgan meva va urug'ning sifati uning muhim adaptatsiya ko'satkichlaridan biridir.



1-rasm Laboratoriya sharoitida urug'larining unuvchanligi aniqlash jarayoni

Baland bo'lyli Aylantningning laboratoriya sharoitida urug'larni unuvchanligini aniqlashdan oldin 1000 dona urug'larini laboratoriya torozisida tortib oldik 1000 dona urug' vazni 25 g to'g'ri keldi. 1kg unuvchan urug'lardan 40000 dona urug' ko'chatlar xosil bo'ladi. Urug'larni unib chiqishi uchun harorat, namlik, xavo nisbiy namligi muhim ahamiyatga ega.

Laboratoriya sharoitida Baland Aylant(*Ailanthus altissima*)ning urug' unuvchanligini (% hisobida) (n=100)

1-jadval

Urug'lar soni, dona	Variantlar	Kuzatuv kunlarida unib chiqqan nihollar soni, dona					Urug' unuvchanlik jami %
		5 kun	10 kun	15 kun	20 kun	25 kun	
100	15°C	2	10,2	17,1	27,3	-	27,3%
100	20°C	18,3	22,5	41,3	61,9	73,2	73,2%
100	25°C	22,1	38,2	63,4	88,2	94,1	94,1%
100	30°C	34,8	43,6	62,7	-	-	62,7%

Mo'ttadil iqlim sharoitida o'sadigan turlarning urug'ini unishi uchun kam harorat yetarli hisoblanadi. Baland bo'lyli Aylantning urug' undrisha qo'yishdan oldin tinim

davri senil davri kamida 60 kun bo'lishi talab etiladi. Baland bo'yli Aylantning ning urug'i senil davrida to'la rivojlanib unuvchanlik ortadi.

Baland bo'yli Aylantning ning urug' unuvchanligini eng maqbul xaroratini aniqlash uchun kuydagi xaroratlarda +15 °C, +20 °C, +25 °C, +30°C, laboratoriya sharoitida termostatda undirildi Tajriba natijalari Balan bo'yli Aylantning ning eng maqbul urug' unuvchanligi harorat +25 °C ekanligini ko'rsatdi. Baland bo'yli Aylantning ning urug'lari +15°C va undan yuqori haroratlarda esa nisbatan erta, belgilangan haroratlarga mos ravishda 4-6 kundan so'ng kuzatildi. +25 °C da urug'larning unuvchanligi eng yuqori 94,1% ni tashkil etdi, +30°C haroratlarda urug'larning unuvchanlik darajasi yuqorida qayd etilgan ikki holat o'rtasini tashkil etdi, ya'ni +15°C, +20°C ga nisbatan yuqori, +25°C dagi unuvchanlikka nisbatan esa pastroq bo'ldi. Urug' unuvchanlik laboratoriya sharoitida 25 kun davom etdi.

Xulosa

Laboratoriya sharoitida Baland bo'yli Aylantning urug'larining unuvchanligini aniqlash tajribasi natijalariga ko'ra, urug'lar eng yuqori darajada 25°C haroratda ungan bo'lib, unuvchanlik eng yuqori 94,1% ni tashkil etdi. Harorat oshishi yoki kamayishi esa unish ko'rsatkichini pasaytirdi. Bu esa, Aylant urug'lari uchun optimal unish shart-sharoitlari 25°C harorat va yetarli namlikda ekanligini ko'rsatadi. Tajriba natijalari ushbu Aylant daraxtni turini ko'paytirish, ko'chat yetishtirish va o'rmon resurslarini tiklashda muhim amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ-4850-son «O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
4. Dendrologiya A.K.Qayumov, E.T.Berdiyev, Toshkent Fan texnologiya 2012 yil B. 25–28
5. Kozlowski, T. T., & Pallardy, S. G. (1997). "Physiology of Woody Plants." Academic Press.